

**Qishloq xo'jaligi vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko'rib chiqish natijalari haqidagi yillik
HISOBOTI**

I. Umumiy ma'lumot

2025-yil davomida vazirlik markaziy apparatiga korrupsiya faktlariga doir 22 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 9 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 1 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, 3 tasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi orqali, 4 tasi vazirlikga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan.

Shundan xududlar kesimida Andijon, Buxoro, Farg'ona viloyatlaridan 1 tadan, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Toshkent viloyatlari va va Toshkent shahridan 2 tadan, Surxondaryo viloyatidan 4 ta, Samarqand viloyatidan 5 ta murojaat kelib tushgan. Sirdaryo, Xorazm viloyatlaridan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan murojaat kelib tushmagan.

Vazirlik hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan olingan ma'lumotlarga ko'ra korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

II. Ko'rib chiqish natijalari


Vazirlik markaziy apparatiga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari asosida 18 ta murojaat egalariga tushuntirishlar berildi, 3 ta holatda murojaat qanoatlantirildi, 2 ta murojaat anonim bo'lganligi sababli ko'rmasdan qoldirildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsion holatlar aniqlanmadi.

III. Minimallashtirish choralari

Kelib tushgan murojaatlar mazmunini tahlil qilgan holda, korrupsion holatni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar o'rganib chiqilib, ushbu holatlar bo'yicha tegishli profilaktik choralar ko'rilishi bo'yicha hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

**Korrupsiyaga qarshi
kurashish bo'limi boshlig'i**



Sh. Teshaboyev.